

Sirdaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim


2024/2025 o'quv yili boshiga

- I.** Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
- II.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar
- III.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar
- IV.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari
- V.** O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)
- VI.** O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda, jumladan, o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining umumiy soni ortib bormoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **18 taga**, ya'ni **2,2 % ga** ko'payib, **845 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari soni
(tegishli o'quv yili boshiga, birlik)



Faoliyat yuritayotgan akademik litseylar soni 2024/2025 o'quv yili boshida **3 tani** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **3 ta**. Shuningdek, texnikumlar sonida ham o'sish qayd etilgan. Mazkur davr davomida ularning soni **3 taga (42,8 % ga)** oshib, 2024/2025 o'quv yili boshida **10 tani** tashkil etgan.

Kasb-hunar kollejlari sonida esa yuqorida ko'rsatilgan davr mobaynida pasayish kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar kollejlari soni **2 taga** (ya'ni **33,3 % ga**) kamayib, tegishlilikicha **4 tani** tashkil etgan.

Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari
sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, birlik)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlari	Texnikumlar
Sirdaryo viloyati	3	12	4	10
Guliston shahar	1	1	1	5
Shirin shahar	-	-	1	-
Yangiye shahar	-	-	1	1
tumanlar				
Oqoltin	-	1	-	1
Boyovut	-	2	-	-
Sayxunobod	-	2	-	-
Guliston	-	1	-	1
Sardoba	-	1	-	-
Mirzaobod	1	1	-	-
Sirdaryo	1	1	1	2
Xovos	-	2	-	-

Akademik litseylar Guliston shahri (**1 ta**), Mirzaobod (**1 ta**) va Sirdaryo (**1 ta**) tumanlarida kuzatilgan. Kasb-hunar maktablari bo'yicha – Boyovut (**2 ta**), Sayxunobod (**2 ta**) va Xovos (**2 ta**) tumanlari, kollejlari bo'yicha – Guliston (**1 ta**), Shirin (**1 ta**) va Yangiye (**1 ta**) shaharlari, hamda texnikumlar soni bo'yicha Guliston shahri (**5 ta**), Sirdaryo tumanida (**2 ta**) eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etganlar.

Boshqa hududlarga nisbatan, eng kam kasb-hunar maktablari Oqoltin (**1 ta**), Guliston (**1 ta**) va Sirdaryo (**1 ta**) tumanlarida joylashgan. Texnikumlar soni bo'yicha ham Oqoltin (**1 ta**), Guliston (**1 ta**) tumanlari eng past ko'rsatkichga ega bo'lganlar.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat yuritayotgan o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlari \(jami\)](#)

[Akademik litseylar soni](#)


[Kollejlari soni](#)

II. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilinganlar

Mamlakatda o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar sonida umumiy o'sish kuzatilmoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablariga qabul qilinganlar soni sezilarli darajada oshib, **2,4 ming nafardan 3,1 ming nafargacha** ko'paygan, ya'ni **29,2 % ga**. Texnikumlarga qabul qilinganlar soni esa **1,3 ming nafardan 1,6 ming nafargacha**, ya'ni **23,1 % ga** oshgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni

(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Kuzatilayotgan davr mobaynida akademik litseylarga o'quvchilarni qabul qilish ko'rsatkichi kamaygan — **0,6 ming nafardan 0,4 ming nafargacha**, ya'ni **33,3 % ga** kamaygan. Biroq, kollejlarda qabul qilinganlar soni keskin kamaygan — **1,7 ming nafardan 0,7 ming nafargacha**, deyarli **2,4 barobarga**.

Qabul qilingan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Sirdaryo viloyati	0,5	3,1	0,7	1,6
Guliston shahar	0,1	0,1	0,1	1,0
Shirin shahar	-	-	0,3	-
Yangiyer shahar	-	-	0,1	0,2
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	-	0,3	-	0,1
Boyovut	-	0,4	-	-
Sayxunobod	-	0,5	-	-
Guliston	-	0,3	-	0,1
Sardoba	-	0,3	-	-
Mirzaobod	0,2	0,2	-	-
Sirdaryo	0,2	0,4	0,2	0,2
Xovos	-	0,6	-	-

Akademik litseylarga qabul qilingan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo tumani (**0,2 ming nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha Xovos tumani (**0,6 ming**) kollejlari bo'yicha – Shirin shahri (**0,3 ming nafar**), texnikumlar bo'yicha – Guliston shahri (**1,0 ming nafar**)da eng yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan.

Qabul qilingan o'quvchilar soni boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylar bo'yicha Guliston shahri (**0,1 ming nafar**), kasb-hunar maktablari bo'yicha — Guliston shahri (**0,1 ming**), kollejlari bo'yicha — Yangiyer shahri (**0,1 ming**), texnikumlar bo'yicha – Oqoltin tumani (**0,1 ming**)da eng past ko'rsatkichlar belgilangan.


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar soni (jami)

III. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar

So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilarning umumiy soni kamayib bormoqda. 2024/2025 o'quv yili boshida 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan ularning soni **1,0 ming nafarga**, ya'ni deyarli **8,3 % ga** kamayib, **11,0 ming nafarni** tashkil etgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar soni
(tegishli o'quv yili boshiga, ming kishi)



Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilarga kelsak, 2024/2025 o'quv yili boshida ularning soni **0,8 ming nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **3,1 % ga** kamaygan. Shuningdek, kollej o'quvchilari soni ham kamaygan — ushbu davr mobaynida **2,5 ming nafarga** (ya'ni **64,1 % ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **1,4 ming nafarni** tashkil etgan.

Yuqorida qayd etilgan vaqt oralig'ida kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi o'quvchilar sonini ortishi kuzatilgan. 2024/2025 o'quv yili boshiga kelib, 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan kasb-hunar maktablarida o'quvchilar soni **1,1 ming nafarga**, ya'ni **23,4 % ga** oshgan, texnikumlarda esa **0,8 ming nafarga** (**36,4 % ga**) ko'paygan. Tegishliligi bo'yicha ularning umumiy soni **5,8 ming** va **3,0 ming nafarni** tashkil etgan.

Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo tumanida (**3,0 ming**), kasb-hunar maktablari bo'yicha Xovos tumanida (**1,1 ming**), kollejlarda bo'yicha Shirin shahrida (**0,6 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Guliston shahrida (**1,4 ming**) qayd etilgan. Boshqa hududlarga nisbatan akademik litseylardagi o'quvchilar soni bo'yicha eng past ko'rsatkich Mirzaobod tumanida (**0,2 ming**), kasb-hunar maktablari va kollejlarda bo'yicha Guliston shahrida (**0,2 ming**, **0,1 ming**), texnikumlar bo'yicha esa Oqoltin tumanida (**0,2 ming**) kuzatilgan.

Tahsil olayotgan o'quvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, ming kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Sirdaryo viloyati	0,8	5,8	1,4	3,0
Guliston shahar	0,3	0,3	0,1	1,4
Shirin shahar	-	-	0,6	-
Yangiyer shahar	-	-	0,3	0,4
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	-	0,5	-	0,3
Boyovut	-	0,8	-	-
Sayxunobod	-	0,9	-	-
Guliston	-	0,6	-	0,3
Sardoba	-	0,5	-	-
Mirzaobod	0,2	0,3	-	-
Sirdaryo	0,3	0,8	0,4	0,6
Xovos	-	1,1	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(jami\)](#)

[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(qiz bolalar\)](#)


[Kollejlarda tahsil olayotgan o'quvchilar soni \(o'g'il bolalar\)](#)

IV. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarining bitiruvchilari

So'nggi yillarda respublikada o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarini bitirganlar sonida kamayish kuzatilmoqda. 2024-yilda, 2021-yilga nisbatan, ularning umumiy soni **1,2 barobarga** kamaygan, **4,5 ming nafarni** tashkil etgan.

Mazkur davr mobaynida kasb-hunar maktablarining bitiruvchilari soni **0,5 ming nafarga** (ya'ni **1,2 barobarga**), texnikumlarniki esa **0,2 ming nafarga** (**1,3 barobarga**) oshgani qayd etilgan. Akademik litseylarning bitiruvchilariga kelsak, ushbu davrda ularning soni **0,1 ming nafarga**, ya'ni **20,0 %** va kollejlarniki — **3,1 ming nafarga** **68,2 %** kamaygan.

Bitiruvchilar soni
(tegishli yil uchun, ming kishi)



Bitiruvchilar sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024-yil uchun, ming kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Sirdaryo viloyati	0,4	2,7	0,7	0,8
Guliston shahar	0,1	0,1	0,1	0,2
Shirin shahar	-	-	0,2	-
Yangiyer shahar	-	-	0,2	-
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	-	0,2	-	0,1
Boyovut	-	0,4	-	-
Sayxunobod	-	0,4	-	-
Guliston	-	0,3	-	0,2
Sardoba	-	0,3	-	-
Mirzaobod	0,1	0,2	-	-
Sirdaryo	0,2	0,4	0,2	0,3
Xovos	-	0,4	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Akademik litseylarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(jami\)](#)


[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(qiz bolalar\)](#)

[Kollejlarning bitiruvchilari soni \(o'g'il bolalar\)](#)

V. O'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)

2024/2025 o'quv yili boshida O'zbekiston Respublikasidagi o'rta maxsus va professional ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini yuritayotgan pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz)ning umumiy soni **816 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **32 nafarga**, ya'ni **4,1 % ga** oshgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni
(tegishli o'quv yili boshiga, kishi)



2024/2025 o'quv yili boshida akademik litseylardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni **80 nafarni** tashkil etgan va 2021/2022 o'quv yiliga nisbatan **13,0 % ga** kamaygan. Shuningdek, kasb-hunar maktablari va texnikumlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonida ham o'sish kuzatilmoqda. Kasb-hunar maktablarida ularning soni **78 nafarga**, ya'ni **21,1 % ga** ko'payib, **448 nafarni** tashkil etgan. Texnikumlarda esa ushbu ko'rsatkich **34 nafarga** (**19,1 % ga**) oshib, **212 nafarga** yetgan.

O'z o'rnida, kollejlardagi pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kamayganligi kuzatilgan. Mazkur davrda ularning soni **68 nafarga** (**47,2 ga**) qisqarib, 2024/2025 o'quv yili boshida **76 nafarni** tashkil etgan.

Enga ko'p pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) soni kasb-hunar maktablari va texnikumlar bo'yicha — Guliston shahri (**114 nafar**, **81 nafar**) da kuzatilgan.

Pedagog xodimlar (o'rindoshlarsiz) sonini hududlar kesimida taqsimlanishi
(2024/2025 o'quv yili boshiga, kishi)

	Akademik litseylar	Kasb-hunar maktablari	Kollejlar	Texnikumlar
Sirdaryo viloyati	80	448	76	212
Guliston shahar	22	114	7	81
Shirin shahar	-	-	42	-
Yangiyer shahar	-	-	13	37
<i>tumanlar:</i>				
Oqoltin	-	17	-	10
Boyovut	-	81	-	-
Sayxunobod	-	51	-	-
Guliston	-	23	-	15
Sardoba	-	24	-	-
Mirzaobod	15	25	-	-
Sirdaryo	43	43	14	69
Xovos	-	70	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Akademik litseylardagi oliy ma'lumotli pedagog xodimlar soni](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(jami\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(ayollar\)](#)

[Kollejlardagi pedagog xodimlar soni \(erkaklar\)](#)

VI. O'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

O'rta maxsus ta'lim akademik litseylarda to'qqiz yillik tayanch o'rta ta'lim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va ta'lim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-xunarga va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim olishini ta'minlaydi.

Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha boshlang'ich professional ta'lim, o'rta professional ta'lim, o'rta maxsus professional ta'lim darajalarini o'z ichiga oladi.

Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi.

O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi.

O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus va professional ta'lim bo'yicha statistik ma'lumotlar yillik statistik hisoboti – 1 o'rta ta'lim shakli “Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylar hisoboti” ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur hisobot akademik litseylar, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tomonidan taqdim etiladi.

Boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim muassasalari va akademik litseylarning statistik hisoboti qabul qilinganlar, tahsil olayotganlar, bitiruvchilar, pedagog xodimlar soni va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimini tavsiflovchi boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Statistik ma'lumotlar respublika va hududlar kesimida taqdim etiladi. Qabul qilinganlar, tahsil olayotgan o'quvchilar, pedagog xodimlar soni va moddiy-texnik baza kabi ko'rsatkichlar o'quv yili boshiga, bitiruvchilar soni esa o'tgan yil yakunlariga asosan ko'rsatiladi.

Jamlangan ma'lumotlar ta'lim tizimi rivojlanishini monitoring qilish, rejalashtirish, asosli qarorlar qabul qilish va siyosatni ishlab chiqish, shuningdek, Baraqaror rivojlanish maqsadlari (BRM) va boshqa xalqaro majburiyatlar doirasida xalqaro hisobotlar tayyorlash uchun foydalaniladi.

Foydali havolalar:

[Ta'lim statistikasi bo'yicha uslubiy Nizom](#)



[MSKO 2011](#)
[MSKO-0 2013](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
*Ijtimoiy soha statistikasi
boshqarmasi*

Manzil: Manzil: 120100,
Guliston, Birlashgan ko'chasi,
62-uy Pochta: info@sirstat.uz
Tel.: 67-236-70-00 Ichki: 21-00

